

DORIVOR KAVRAKNING FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xamrokulov Diyorbek Farxod O‘g‘li, talaba

Eshankulova Zilola Xoliyarovna, assistent

Ilmiy rahbar: Negmatova Moxichexra Umarovna

barchasi: ToshDavTU Termiz filiali, Termiz shahri, O‘zbekiston

Kirish. So‘nggi yillarda past toksiklikka ega bo‘lgan va yuqori biologik faollikka ega tabiiy birikmalarni o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, tabiiy o‘simliklardan olingan moddalar asosida yangi, samarali va xavfsiz fitopreparatlar yaratish dolzarb masalaga aylangan. Shunday istiqbolli o‘simliklardan biri dorivor kavrak (Ferula foetida) bo‘lib, u soyabonguldoshlar (Apiaceae) oilasiga mansub. Qadimdan xalq tabobatida kavrak yallig‘lanishga qarshi, antiseptik va spazmolitik vosita sifatida keng qo‘llanilgan.

Kalit so‘zlar: kavrak, Ferula foetida, farmakologiya, assafetida, ferul kislotasi, fitoterapiya.

Maqsad. Dorivor kavrakning farmakologik xususiyatlarini o‘rganish va uni tibbiyot amaliyotida qo‘llash istiqbollari aniqlash.

Materiallar va usullar. Tadqiqot davomida kavrakning kimyoviy tarkibi va biologik faolligiga oid ilmiy manbalar hamda tajribaviy natijalar tahlil qilindi. O‘simlikdan olingan ekstraktlar, efir moylari va smolalarning farmakologik ta‘siri o‘rganildi.

Natijalar va muhokama. Kavrakning farmakologik faolligi uning tarkibidagi efir moylari, flavonoidlar, smolalar, terpenlar, oltingugurtli birikmalar va ferul kislotasi bilan bog‘liq. Ushbu moddalarning biologik faolligi keng: ular mikroblarga qarshi, yallig‘lanishga qarshi, antioksidant va immunomodulyator ta‘sir ko‘rsatadi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, kavrak ekstraktlari spazmolitik va o‘t haydovchi ta‘sirga ega bo‘lib, ovqat hazm qilish va nafas olish tizimlarining silliq mushaklari tonusini pasaytiradi. Kavrak asosidagi preparatlar bronxit, meteorizm, kolika va infeksiyon kasalliklarda samarali qo‘llaniladi.

Ferul kislotasi va uning hosilalari antioksidant, immunomodulyator va o‘smalarga qarshi xususiyatlarga ega. Ular immun tizim faolligini oshiradi, interferon va antioksidant fermentlar miqdorini ko‘paytiradi. Bu natijalar kavrakning tabiiy immunotrop birikmalar manbai sifatida istiqbolini tasdiqlaydi.

Xulosa. Dorivor kavrak tabiiy kelib chiqishga ega biologik faol moddalar manbai hisoblanadi. O‘simlik ekstraktlari keng farmakologik faollikka ega — mikroblarga qarshi, yallig‘lanishga qarshi, spazmolitik va immunomodulyator ta‘sir ko‘rsatadi.

Kavrakning kimyoviy tarkibi va ta‘sir mexanizmlarini yanada chuqur o‘rganish asosida yangi, samarali va xavfsiz fitopreparatlar yaratish imkoniyatlari mavjud.